Tarbiyachi bu usuldan qayta hikoya qilishga o'rgatishning dastlabki bosqichida, ayniqsa, hikoya qilib bera olmaydigan bolalar bilan ishlashda keng foydalanishi kerak.

Qayta hikoya qilish jarayonida tarbiyachi bolalarga sezdirilmagan holda gavdasini to'g'rilashi, imo-ishora, ko'z qarashi bilan dalda berishi mumkin, mashg'ulotning oxirida esa, albatta, bolani maqtash kerak: „Yasha, endi boshqa bolalarga hikoya qilish yengil bo'ladi. Faqat keyingi safar balandroq ovozda hikoya qilgin“.

2. Qayta hikoyani takrorlash.

Bu usuldan ko'proq o'rta va katta guruhlarda foydalaniladi. Bu bola uchun ancha murakkab bo'lgan usuldir, chunki u tarbiyachining hikoyasiga alohida luqma tashlash (gap qistirish) bilan birga, to'liq jummalarni ham takrorlashiga to'g'ri keladi.

3. So'z va jummalarni aytib turish.

Bu usul qayta hikoya qilishning ravonligini, izchilligini ta'minlaydi, uzoq pauza qilishga yo'l qo'ymaydi. Bu usuldan ko'proq bola asar matnining ayrim joylarini esdan chiqarganda foydalaniladi.

Agar bola juda yaxshi hikoya qilsa-yu, biroq nutq sur'ati juda sekin bo'lsa, tarbiyachi pauza



vaqtida sabr-toqat bilan hikoyaning davomini kuzatishi: bolaning gavda holatiga e'tibor bilan qarashi, dalda berishi orqali bola diqqatini to'plashi kerak.

keyingi qayta hikoya qilib berish mashg'ulotidan oldin yana bir marta bolani ogohlantirishda bundan foydalanadi.

Tarbiyachi aytib turish orqali, bolani qayta hikoya qilayotganida yo'l qo'ygan grammatik xatolarni to'g'rilaydi. Bu usul qayta hikoya qilishga o'rgatishning keyingi bosqichlarida ham qo'llaniladi.

1. Savollar berish.

Bu usul keng tarqalgan bo'lib, u muqaddima (kirish) suhbatida va mashg'ulot jarayonida qo'llaniladi. Qayta hikoya qilish mashg'ulotida foydalaniladigan savollarni shartli ravishda ishlatilishiga va maqsadiga qarab bir qancha turkumga ajratish mumkin. Hikoya qilolmaydigan bolalarga qayta hikoya qilishni boshlagunga qadar yordamchi savollar berish mumkin, bu hikoyani boshlashga yordam beradi, masalan: „Sen nima haqida hikoya qilasan, ola quyon to'g'risidami? Mayli, kel boshlaymiz. Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga...“. Yoki: „Tuma Tulkini o'zi bilan olib, osmonga ko'tarilibdi va unga nima debdi? Yerni ko'ryapsanmi?“

Bola qayta hikoya qilib bergandan keyin, albatta, savol berishdan foydalanish mumkin. Bu asar mazmunini bola qay darajada tushunganini aniqlashga yordam beradi, matnni qayta hikoya qilayotgan vaqtda tashlab ketilgan joylarini tiklashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T., 2018 y.
2. R.Shomaxmudova. L. Mo'minova “Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish”. Qo'llanma 1993 yil.



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM O‘QUVCHILARINING BILIMIDAGI BO‘SHLIQLAR VA ULARNI TO‘LDIRISH

Jabborova Dilafruz Sherali qizi

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani
3- son maktabning Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Shubxasiz, boshlang‘ich ta‘lim bilimlarning poydevori, unda olingan bilim va ko‘nikmalar keyingi bosqichga yo‘l ochadi. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim olishlaridagi bo‘shliqlar va ularning yechimlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, o‘quvchi, bo‘shliq, tushunish, bilish, mehr, nutq, matn, so‘z, hamkorlik, pedagog, mahorat.

Ta‘lim islohoti yangicha fikrlovchi, globallasuv jarayonida axborot oqimida to‘g‘ri yo‘l topa oladigan, axborotlardan unumli, yosh avlod ta‘lim–tarbiyasi, kasb-hunar o‘rganishida foydalana oladigan, izlanuvchan, ijodkor pedagogni shakllantirish vazifasini ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Bu ishning muhimligi shundaki, pedagogik tajriba ta‘lim mazmuniga qanchalik yangilik kiritilmasin, qanchalik mukammal dasturlar, darsliklar va ta‘lim standartlari yaratilmasin, ularni o‘quv–tarbiya jarayoniga joriy qilish o‘qituvchi shaxsi va pedagogik mahoratiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Boshlang‘ich ta‘lim sifat va samaradorligi muammolari yechimlari ko‘pincha o‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarda bo‘ladi. O‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. O‘quvchini qalban tushunish lozim: Dars muqaddasda aytilganidek, “Buyuk o‘qituvchi ruhlantiradi” ilm olishga ilhomlantiradi.

2. O‘qishda qiynaladigan o‘quvchi:

- a) og‘zaki nutqda ravon gapirishni bilishi;
- b) rasmga qarab tutilmay so‘zlashni bilishi;
- v) tovushni tovushga qo‘shish mulohazasini ongli tushunishi;
- d) bo‘g‘inni nimaligini ongli tushunishi;
- g) berilgan matnni xatosiz ko‘chira olishi kerak.

Mana shu yuqoridagi faoliyatlar amalga oshirilsa, tartibi buzilmasa o‘quvchi ongli va ravon o‘qiydi.

3. Yozuvda qiynaladigan o‘quvchi:

- a) ruchkani to‘g‘ri tutishni bilishi;
- b) harfni qayerdan boshlab qayerda tugashini ongli tushunishi;
- d) harfning yozilishini monitorda (va boshqalarda) kuzatishi;
- v) namunali yozuvni doimiy kuzatishi;
- e) harflar eni va bo‘yini ongli idrok qilishi;
- f) nutqida kamchiliklarni tuzatishi;
- g) eshitishning ongli bo‘lishi hisobga olinsa o‘quvchi husnixat va savodxonlikka erishadi.

4. Hisobda qiynalishida e‘tibor berish lozim:

- a) hisoblashni barmoqlarda avtomatlashtirish;
- b) 10 ichida + va – jadvalini yod olish ongli ravishda bo‘lishi;
- v) sonlarning sonlar o‘qida joylashishini bilishi;
- d) + va – bog‘liqligini bilishi;
- e) mulohazalar ketma ketligini tushuninishi, keyinchalik matematikada qiynalmasligiga asos bo‘ladi.

Yuqoridagilarni har bir o‘qituvchi o‘z uslubidan kelib chiqib ota –onalar bilan hamkorlikda bartaraf qilishga harakat qilsa o‘quvchilarda bo‘shliqlar bo‘lmaydi.

O‘quvchilar bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish bo‘yicha hayotiy namunalarni ko‘rib o‘tamiz:

1. O‘quvchini qalban tushunish lozim. Bu olamda mehr berib ishlangan moddiy jismlar ham tirikdek jilolanib ko‘zingizni quvontiradi. Agar o‘qituvchi kerakli bilimga ega bo‘lsa, o‘quvchining jismi va ruhi sog‘lom bo‘lib, ota ona bilan do‘stona hamkorlik o‘rnatilib, mehr bilan bilim berilsa a‘lo natijaga ega bo‘lamiz. 2. O‘qishda qiynaladigan o‘quvchi:

a) og‘zaki nutqda ravon gapirishni ya‘ni o‘zaro gaplashganda ravon nutqqa ega bo‘lishiga e‘tibor qaratish kerak. Tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qila olishi lozim. Buning uchun chiroyli nutqni takror-takror tinglashlari yordam beradi: ertaklar, o‘qituvchi nutqi bunga asos bo‘ladi.



b) Rasmga qarab tutilmay so‘zlashni mashq qilish. Rasmlardan foydalanib nutqni o‘stirish, qiziq rasmlar, multfilmlar tasvirlangan rasmlar va ulardan xulosalar chiqarish mustaqil fikrlashni ham oshiradi.

v) Tovushni tovushga qo‘shish mulohazasini ongli tushunishi uchun birinchi, harf emas tovush nimaligini anglatish, “Tovushlardan bo‘g‘in hosil qilish”, “Bo‘g‘inlardan tovushlarni ajratish” kabi o‘yinlar o‘tkazilishi kerak.

d) bo‘g‘inni nimaligini ongli tushunishi. Bo‘g‘in bu - so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘lish asosida tushuntiriladi. Masalan: ol-ma, a-nor, non, ki-tob kabi.

g) Berilgan matnni xatosiz ko‘chira olishi kerak. Berilgan matnni ko‘chirish uchun 1-sinfda kitobni sinfdagi oxirgi partaga qo‘yib, doskagacha undagi matnni eslab doskaga yozish topshiriladi, keyingi sinflarda matnni xatosiz, tez ko‘chirish mashq qilinadi.

3. Yozuvda qiynaladigan o‘quvchiga individual yondashib monitorda harflarni harakatli yozilishini kuzatib yozish mashqlari yaxshi samara beradi. Har bir darsda mavzu amaliy tushuntirilsa, masalan ot so‘z turkumi, narsa va shaxslarning nomini bildirgan so‘zlar turkumi mavzusida: qani bolajonlar yoningizda shaxsni ushlab nomini ayting va so‘roq bering bolalar; parta ustidagi narsalarni ushlab nomini ayting va so‘roq bering. Ushbu mashqlar yordamida bolalar shaxs, narsa, nom so‘zlarini ohangli tushunib oladilar.

Hisoblash darslarida ham o‘quvch iloji boricha amaliy ishlashi shart. O‘yinlar yordamida tez mulohaza qilishni o‘rganishi lozim. O‘qituvchi xatoni qizil ruchkada ko‘rsatsa o‘quvchi uni yashil ruchka bilan yechib ko‘rsatishi natijani yanada yaxshilaydi. Tekshirilgan daftarni o‘quvchi ko‘rib, idrok qilib yashil ruchkada qayta yechishi bo‘shliqlarni o‘z vaqtida to‘ldirilishini ta’minlaydi.

O‘quvchini bilim olishga qiziqtirish va ruhlantirishda o‘qituvchi, ota-ona hamkorligi, ta’lim va tarbiya chambarchas bog‘liq bo‘lishi juda muhim. Eng asosiysi mustaqil erkin fikr yuritishiga erishishimiz, buning uchun oilada ham zarur muhitni yaratishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulzoda Boymurodova, Xadicha Sattorova...”O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma
2. J. G’. Yo‘ldosheva, F. Yo‘ldosheva, G’. Yo‘ldoshev “Interfaol ta’lim sifat kafolati” T. 2008
3. “Boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg‘or tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari.



BOLALARDA MIQDORIY TASAVVURNI RIVOJLANTIRISH.

Sevara Odilova Saidumarxonovna
Norin tuman pedagogika kolleji
maxsus fan o'qituvchisi
sevara@gmail.com 934938700

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarbni miqdoriy tasavvurini rivojlantirish omillari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Miqdoriy tasavvur, idrok, tarbiya, rivojlantirish, shakl, rang, estetik, jismoniy, bola, kubik, dumaloq, figuralar.

Bolalarni buyumlarning shakli, katta-kichikligi va rangi bilan tanishtirish hamda ularda bu hossalarni to'g'ri idrok qilish ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi sensor tarbiya sohasiga kiradi. Bu tarbiya qanchalik to'g'ri hal qilinsa, bolalarning faqat aqliy tarbiyasigina emas, balki estetik, jismoniy va hatto ahloqiy tarbiyasi ham shunchalik muvofaqiyatli bo'ladi, ya'ni bolalar umuman samarali rivojlanib boradi. Masalan, bir yarim yashar bola ariqning kengligini chamalab ko'rib, uning ustidan hatlab o'ta oladimi; ikki yoshli bola besh bo'lakdan iborat martyoshkani to'g'ri yig'a oladimi; maktabgacha tarbiya yoshdagi bola shakli va barglariga qarab ikki xil gulni bir-biridan farqlay oladimi, bu gullarning shakli va rangini chizayotgan rasmida aks ettira oladimi - bularning hammasi ma'lum darajada bolaning idrok qilishining qanchalik rivojlanganiga bog'liq bo'ladi. O'rgatish jarayonida ilk yoshdagi bolalar oliy nerv sistemasi va psixikasining rivojlanishiga oid bir qator o'ziga xos xususiyatlarni hisobga oldik. Shuning uchun ham biz solishtirish harakatlarini o'rgatish vaqtida foydalanilgan metodik usullarni ham shunga muvofiq tanladik:

1. Shakllar bilan teshiklarning shaklini bolalarga barmoqlar yordamida havoda yasab ko'rsatish. Bolaning diqqat-e'tiborini harakatlar va predmetlarga jalb qilish, shuningdek ularni kattalarga o'xshab figuralar shaklini havoda chizishga undash maqsadida barcha harakatlarni so'z bilan tushuntirib turish.

2. Harakat usullarini ko'rsatish va tushuntirib berish. Masalan, “Sharcha dumaloq, uni dumaloq teshikka tushiramiz”, “Kubik qanday shaklda bo'lsa, tushiriladigan teshik ham shunday shaklda bo'ladi” va hokazo. “Xuddi shunday”, “Yo'q unday emas” degan so'zlarni aytib bolaning diqqatini predmetlarning o'xshashi yoki farq qilishiga qaratish.

3. Bolaning harakatlariga bevosita rahbarlik qilish, figuralarni quticha va taxtaning teshiklariga tushirayotganda unga yordam ko'rsatish.

4. Biz bolaga solishtirib ko'rish harakatlarini mashq qilish imkonini berar ekanmiz, har bir topshiriqning bajarilishi ijobiy natijalar bilan tugashini kuzatib boramiz. O'rgatish jarayonida bolaning qiziqishini (mo'ljallash faoliyatini) oshirish maqsadida topshiriqlarning uchala usuli bir-biri bilan ketma-ket almashtirib turildi, bu navbat keyinchalik ham saqlab qolindi.

Bizning bundan keyingi tajribalarimiz bolalarning ikkita predmetni shakli bo'yicha bir-biriga o'xshashligini belgilash ko'nikmasidan predmetlarni namunaga qarab tanlab olish sharoitida, tashqi mo'ljallash harakatlarini bajarishni istisno qiladigan tanlab olish sharoitida shakllarning yangi turlariga o'tishga bag'ishlanadi.

1- bosqichdagi o'rgatish ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonida tarkib topgan tashqi mo'ljallash harakati figuralarning teshikka taqqoslanishiga oid amaliy vazifaning o'zini ham muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi. Bolalar figura va teshiklarning burchaklari hamda tomonlarni bir-biriga mos kelishi yo'li bilan ularning bir xilligini yoki bir xil emasligini

aniqladilar, bunda ular shakllarning fazoda o'zaro mos kelishi kabi mezonga asoslandilar. Agar bu o'rinda teshikning shakli etalon funksiyasini bajaruvchi namuna, figura va tekshirilayotgan ob'ekt bo'lib xizmat qilsa, bolalar ob'ektlarini o'zaro shakliga qarab taqqoslashni o'rganib oladilar, shu bilan birga ob'ektlarning bittasidan boshqasining shakliga baho beradigan o'lchov sifatida foydalandilar, deb hisoblash mumkin.

Biz ikkita ob'ektni fazoda bir-biriga joylashtirish va harakat natijalarini oldindan ko'z bilan ko'rib turish harakatlarini muvofaqiyatli bajargan bolalar “namunaga qarab tanlash” vazifasini ham ko'z bilan ko'rib bajara oladilar, ya'ni namuna bilan taqdim qilingan har bir ob'ektni tekshirish va ularning bir xilligini shakliga qarab belgilashni biladilar, degan fikrda edik. O'rgatish



natijasida bolalar ikki yarim yoshdan boshlab pozitiv harakatlarni o'zlashtirib olganlaridan keyin murakkab shakldagi figuralarni namunasiga qarab tanlash vazifasini bajara oladilar. Ma'lumki, pertseptiv harakatlarda namunani tanlash uchun taklif qilingan ob'ektlar bilan birga joylashuvi amalga oshiriladi va shakllarning mos kelishi bir xillik mezoni sifatida foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Matematika tasavvurni shakllantirish nazariyasi va metodikasi. E.M.Mardonov Samarqand 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 2020-yil 30-sentabr.
3. Ozbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi. Lex.uz
4. BMTning “Nogironlar huquqlari togrisida”gi Konvensiyasi 2006-yil 13-dekabr



RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Sharipova Surayyo Turayevna

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani
3- son maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptirish uchun ularda ijodiy fikrlash malakalarini o'stirish zarur. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning yo'nalishlari va usullari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, boshlang'ich ta'lim, raqamli ta'lim, tafakkur, texnologiya, bilim, ko'nikma, ta'lim, tarbiya, imkoniyat, xotira, o'quvchi.

Raqamli texnologiyalarning hayotimizga shiddat bilan kirib kelishi insoniyatning yashash tarzi, sharoitini butunlay yangicha darajada o'zgartirib yubormoqda. Ulardan ham kundalik ishlarida ham ishlab chiqarishda foydalanish insoniyatni to'rtinchi sanoat inqilobiga olib keldi. Raqamli inqilobga asoslangan bu sanoat inqilobi aqlli tizimlar tomonidan boshqariluvchi avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishga butunlay o'tish deganidir. Bunday sanoat inqilobi sharoitida endi nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanuvchi balki ularni ishlab chiqaruvchi yuqori malakali mutaxassislarini yetishtirish masalasi butun dunyo oldidagi muammolardan biridir. Albatta bunday jarayon bilan to'qnash kelgan har qanday jamiyat uchun raqamli dunyoni boshqara oladigan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantira oladigan kelajak mutaxassislarini tayyorlash ustuvor masalalardan biridir. Yurtimizda ham raqamli bilimlarga, tafakkurga ega, strategik fikrlay oladigan, zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bu masala ta'lim-tarbiya sohasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Zamonaviy dunyoda yashash, axborot oqimida harakat qilish va muvaffaqiyatli bo'lish ijtimoiy tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy tanqidiy tafakkur - bu insonning jamiyat bilan o'zaro ta'siri, ijtimoiy voqelik haqidagi qarash va jamiyat g'oyasini qayta aniqlashga tayyorlikni o'z ichiga olgan ijtimoiy voqelikning dizayni, shuningdek, ijtimoiy-tanqidiy tafakkur - bu ijtimoiy haqiqatni anglash qobiliyati va mavjud vaziyatdan chiqish yo'lini ko'rish, muhim hayotiy masalalarda asosli qarorlar qabul qilish.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning erkin mushohada yuritishlari uchun, avvalambor motivatsiya bosqichining ahamiyati kattadir, unda yangi bilimlar, o'zi mustaqil tanlagan maqsad uchun intilish anchagina kuchli bo'ladi. Motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, kichik maktab yoshidagi o'quvchi mazkur mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylashga majbur etadi.

Ta'lim jarayoni - yangi bilimlarni avvaldan ma'lum bo'lgan axborot bilan bog'lash jarayoni ekan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi tasavvurlari ilgarigi bilimlari va tasavvurlari asosida kengayadi. O'quvchilarga ilgarigi bilim va tasavvurlarini sintez qilishga yordam berish didaktikada muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi axborotni ongli, puxta tushunishlari va yangi ma'lumotga tanqidiy yondashishlari uchun ta'lim jarayonida faol qatnashishlari kerak. O'quvchi belgilangan maqsad asosida o'ylab, fikrlarini o'z so'zlari bilan ifodalash orqali faollashadi. Bilimlarni namoyish qilish (o'ziga va sherigiga) og'zaki yoki yozma nutq yordamida, faol fikrlash orqali sodir bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilarga yangi axborotni avval bilganlari bilan samarali bog'lashga imkoniyat yaratish, ularda tanqidiy fikrlashga o'rgatishga zamin tayyorlaydi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining shakllanishi o'quvchiga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- o'quvchilarning fikrlash jarayoni jadallashadi;
- o'quvchilar o'z oldilariga aniq maqsadlar qo'ya boshlaydilar hamda ushbu maqsadga erishish yo'llarini izlaydilar;
- o'quvchilar o'zaro bir-birlari bilan faol muloqotga kirishish ko'nikmasini egallay boshlaydilar;
- o'quvchilarda bilim olish, yangi axborotlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlar ortadi;
- o'quv-biluv jarayonida o'quvchilarda faollik ta'minlanadi;
- o'quvchilarda ular orasida vujudga kelgan rangba-rang fikrlarni tinglash va mushohada qilish



ishtiyoqi kuchayadi;

- o'quvchilarda o'z fikrlarini dadil bayon qilish ehtiyoji vujudga keladi;

- o'quvchilar egallagan bilim va tushunchalarini qayta ishlash, ular yordamida fikr ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni “guruh-sinf-guruh” tizimida ishlashga o'rgatish yaxshi natija beradi, chunki ularning fikrlash jarayoni rivojlanadi. Bunda o'quvchilar faol o'quv pozitsiyasini egallashadi. Bularning hammasi shaxs o'zgarishiga olib keladi, bu esa mustahkam bilimga ega bo'lishning sharti hisoblanadi. O'quvchi muayyan ma'noda o'qituvchi rovida bo'lishi, o'qituvchi faoliyatining ayrim qismlarini bajarishi, unda sherikchilik hissiyatini o'stiradi.

Ko'pchilik o'qituvchilar har qanday fikrlashdan ko'ra xotirani rivojlantirishni yuqoriroq qadrlaydilar, nazorat ishlari va imtihonlarda asosan o'quvchilar xotirasi ko'lamini tekshiradilar. Lekin tanqidiy fikrlash tarafdorlari esa aqliy faoliyatning murakkabroq turlarini nazarda tutadi.

Tanqidiy fikrlash o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirish uchun ta'lim tizimini mustahkamlash muhimligini tan oladi. Bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyati, bir tomondan faktlarga asoslangan bilimlardan foydalangan holda mulohaza yuritish va ochiq va izlanuvchan tafakkurni qabul qilish demakdir. Biroq, bunga erishish uchun maktablarda tanqidiy fikrlashni yaxshilashlari uchun o'quv dasturlari ko'proq amalish mashg'ulotlarga tayangan holda integratsiya qilinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Nishonov va boshqalar. Baholash metodlari. O'quv metodik qo'llanma. T., 2003.
2. N.Gulyamova. Boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlash bo'yicha o'qituvchilarning tasavvurlari. Science and innovation international scientific journal.
3. “Boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish: strategiya, innovatsiya va ilg'or tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari.
4. <https://www.uzedu.uz/>
5. Internet materiallari.



IDEOLOGIYALÍQ KOMPETENTLIK HÁM ONÍŇ TÁLIM TÁRBIYA PROCESSINDEGI ÁHMIYETI

Maksetova Vazira Azatovna

Nókis mámleketlik pedagogika instituti

«Pedagogika» fakulteti studenti

Telefon +998(88) 508 28 07

Резюме: Статья посвящена о важности идеологического компетентство в учебно воспитательном процессе.

Summary: The article is devoted to the importance of ideological competence in the educational process

Ключевые слова: идеология, компетентство, национальная идеология, всесторонне-развитые личности

Keywords: ideology, competence, national ideology, all-rounded individuals

Házirgi globallasıw hám informaciya almasıwı júdá jedellesken bir dáwirde Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M. Mirziyoev atap ótkenindey, búgingi kún «jaslar aldında jańa – jańa, ullı imkaniyatlardı ashpaqta. Sonıń menen birge, olardı aldın kórilmegeń túrli jawız qáwip qáterlerge de duwshar qılmaqta. Jawız kúshler aq kewil balalardı óz ata analarına, óz jurıtına qarsı qayrap, olardıń turmısına, ómirine zıyan tiygizbekte. Bunday keskin hám qáwipli sharayatta biz ata analar, muǵallım-ustazlar, jámiyetshilik, máhálle bul máselede sezgirlik hám qıraǵılıqtı jáne de asırıwımız kerek. Balalarımızdı birewlerdiń qolına berip qoymastan, olardı ózimiz tárbiyalawımız lazım»[1]. Buniń ushın eń dáslep, jas áwladtıń intelektual potencialın kúsheyttiriw hám ruwxıy ideologiyalıq tárepten kámil insan etip tárbiyalaw processin durıs shólkemlestiriwimiz júdá áhmiyetli bolıp esaplanadı.

Jas áwladtı ideologiyalıq tárepten salamat hám barksamal qılıp tárbiyalawda bilimlendiriw mekemelerinde xızmet alıp barıp atırǵan bilimlendiriw sisteması basshıları hám qánigelerdiń ideologiyalıq kompetentligi eń tiykarǵı faktor bolıp esaplanadı. Ideologiyalıq kompetentlik túsiniǵi búgingi kún ushın jańa túsiniq. Ideologiyalıq kompetentlik – bul shaxstıń ideologiya tarawında tereń bilimge iyeligini hám ózi isengen ideologiya boyınsha kúshli inanımın (ideologiyalıq immunitet) qalıpleskentligini hám de óz ideologiyasındaǵı ideya hám qaraslardı basqa insanlarda da qalıplestire alıw qábileti bolıp esaplanadı.

Sonı atap ótiw kerek, pedagogikalıq kásipte kásiplik hám ideologiyalıq kompetentlikti bir birinen ajratıp bolmaydı. Sebebi oqıtıwshınıń kásiplik kompetentligini tiykarınan talabaǵa bilim beriwge qaratilǵan bolsa, ondaǵı ideologiyalıq kompetentlik talabaǵa (ruwxıy hám ideologiyalıq) tárbiya beriwge qaratilǵan boladı. Jas áwladtı hár tárepleme jetiliskeń etip tárbiyalaw ushın «bilimlendiriwdi tárbiyadan, tárbiyanı bolsa bilimlendiriwden ajratıp bolmaydı».

Mámleketimizdi jánede rawajlandırıw hám turaqlı rawajlandırıw ushın ideologiyalıq kompetentlik álbette bizin jaratıwshı ideologiyamız esaplangan milliy ideologiyamızǵa tiykarlangan bolıwı kerek. Milliy ideologiya degende milliy qádiriyatlarımız hám ruwxılıǵımızǵa tiykarlangan, adamlarda hadallıq, páklik, insap, diyanat, watandı súyiw, dinler ara bawırıkeńlik, milletler ara tatıwlıq hám basqa da usınday paziyetlerdi qalıplestiretuǵın dóretiwshı mexanizmdi túsiniwimiz. Milliy ideologiyamızǵa tiykarlangan ideologiyalıq kompetentlikke iye bolıw arqalı bilimlendiriw tarawı qánigeleri tereń ideologiyalıq bilim hám kúshli ideologiyalıq immunitetke iye boladı, dúnyanı ideologiyalıq kórinisin túsiniwi hám onı analiz etiwde adaspaydı, házirgi ideologiyalıq quramalı sharayatta milliy ideologiyamız tiykarında pedagogikalıq poziciyasına iye boladı, tálım tárbiya processinde jaslardı ideyalıq bilim hám ruwxılıǵın jáne de jetilistiriw ushın zárúr bolatuǵın bilimlendiriw texnologiyası hám metodların ámelde qollanıw kónlikpelerine iye boladı.

Házirgi bilimlendiriw processini ushın ideologiyalıq kompetentlikniń zárúrliginen kelip shıǵıp, búgingi künde usı máseleni pedagogika páninde úyreniliwi maqsetke muwapıq esaplanıladı. Ideologiyalıq kompetentlikni rawajlandırıw arqalı jas áwladtı ruwxıy hám ideologiyalıq tárepten kámil etip tárbiyalay alsaq búgingi globallasıw hám informaciya dáwirinde júdá jedellesip baratırǵan «bunday sharayatta ideologiya tarawındaǵı jeńislerimizdiń áhmiyeti siyasat hám ekonomika tarawındaǵı jeńislerimizden kem bolmaydı» [2.74].



Адебиётлар:

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Fayyoznazarov Sh. Ommaviy madaniyat. – T.: “Ўзбекистон”, 2012.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2023

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000